



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2023-YIL — INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqqan boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2023-yil 6-sentabr, № 186 (8529)

Chorshanba Saytimga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON PREZIDENTI POKISTON DELEGATSIYASINI QABUL QILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 5 sentyabr kuni Pokiston Islom Respublikasi Qurolli kuchlari Quruqlik qo'shinlari qo'mondoni general Asim Munir boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



O'zbekiston bilan Pokiston o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirish va strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlash masalalari muhokama qilindi. Uchrashuv avvalida yuqori darajali mehmon davlatimiz rahbariga Pokiston Prezidenti Orif Alviy va Bosh vazir vazifasini bajaruvchi Anvar Kakarning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Suhbatda ilgari qabul qilingan "Yo'l xaritasi"ga muvofiq o'zaro savdoning yuqori o'sish sur'atini davom ettirish, infratuzilmaviy loyihalarni tezlashtirish hamda ikki mamlakat yetakchi korxonalarining kooperatsiya aloqalarini kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash yuzasidan, shu jumladan, Afg'onis-

tondagi vaziyatning rivojlanishi nuqtai nazaridan fikr almashildi. Termiz — Mozori-Sharif — Peshovar temir yo'lini barpo etish loyihasini ilgari surish maqsadida amaliy sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish muhimligi ta'kidlandi.

O'z.A.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

SHAVKAT MIRZIYOYEV: MUSTAQIL TARIXIMIZDA BIRINCHI MARTA BUNDAY SHAHAR QURYAPMIZ

Prezident Shavkat Mirziyoyev 5 sentyabr kuni Yangi Toshkent shahrining Bosh rejasi loyihasi bilan tanishdi.

Bugungi kunda Toshkent shahrida yashayotgan va ishlayotgan aholi soni qariyb 5 million nafarni tashkil qilmoqda. Ko'plab uy-joylar, muassasalar barpo etilib, infratuzilma tarmoqlariga yuklama ormoqda. Shunga qaramay, yana yiliga 20 ming xonadonli uylar, 40 dan ortiq maktab, bog'cha, poliklinika qurishga talab bor. Urbanizatsiya sur'atidan kelib chiqqan, yaqin yillarda aholi soni yanada ko'payadi. Davlatimiz rahbari bu masalani alohida e'tiborga olib, Toshkentni rivojlantirish rejalarini 15 — 20 yil oldindan belgilash vazifasini qo'ygan edi. Shundan kelib chiqib, shahardan tashqarida, zamonaviy arxitektura yutuqlari asosida yangi markaz qurishga kirishildi.

Joriy yil 20 iyulda Yangi Toshkent shahrini barpo etish chora-tadbirlari bo'yicha Prezident qarori qabul qilindi. Unga muvofiq, Bosh vazir rahbarligida Yangi Toshkentni barpo etish ishlari muvofiqlashtiruvchi kengash tuzildi hamda direksiya tashkil etildi. Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligida bu loyihaga mas'ul o'rinbosar lavozimi joriy qilindi.

Ushbu ulkan loyiha uchun Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq va O'rta Chirchiq tumanlaridan 19 ming 720 gektar yer tanlab olingan. Birinchi bosqichda 2,5 ming gektarda 100 ming aholi uchun uy-joylar va infratuzilma ob'ektlari qurish rejalashtirildi. Direksiya tomonidan yetakchi xorijiy kompaniyalar jalb etilib, rivojlangan mamlakatlarda

muvaffaqiyatli sinovdan o'tgan amaliyotlar asosida Bosh reja, tarmoq rejalarini va manzilli dasturlar ishlab chiqilmoqda. "ToshkentboshplanLITI" davlat unitar korxonasi Bosh reja loyihasi taqdimoti o'tkazildi. Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirining o'rinbosari — "Yangi Toshkent shahrini barpo etish direksiya" direktori hududni infratuzilma bilan ta'minlash, yo'l va ko'priklar qurish masalalari, muhandislik, shaharsozlik va arxitektura yechimlari bo'yicha axborot berdi.

Loyihada yashillik, qulaylik va tejamkorlikka alohida e'tibor qaratilgan, faol iqtisodiyot va ijtimoiy hayot uyg'unlashtirilgan, transport tarmoqlari poytaxtimiz bilan oqilona bog'langan.

Umuman aytganda, Yangi Toshkent "aqli" va "bog' shahar" bo'lishi nazarda tutilmoqda. Ma'muriy markazda davlat idoralari, Yangi O'zbekiston universiteti, kutubxona, tarix muzeyi, madaniyat saroylari joylashadi. Shuningdek, shaharda ishbiarmonlik va innovatsiya tumanlari, ta'lim, tibbiyot va turizm klasterlari bo'ladi. 420 gektar maydonda markaziy bog', mavzalar orasida sun'iy kanal va ko'llar, Chirchiq va Qorasuv daryolari bo'yida sayilgohlar tashkil qilinib, odamlarning dam olishi uchun so'lim sharoitlar yaratiladi. "Toshkentning yashil belbog'i" loyihasi shu joydan boshlanadi.

Bu komponentlar loyihasi Singapur, Buyuk Britaniya, Xitoy, Germaniya, Turkiya, Niderlandiya, Janubiy Koreya, BAA kabi davlatlarning 20 ta ilg'or kom-

paniyasi tomonidan ishlab chiqilmoqda. Davlatimiz rahbari infratuzilma tarmoqlarini ilg'or standartlar bilan uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidladi.

O'ttiz ikki yillik mustaqil tariximizda birinchi marta bunday shahar quryapmiz, bunga dunyodagi ilg'or kompaniyalarni jalb qilyapmiz. Lekin bizdagi sohalar, standartlar shunga mosmi? — deya savol qo'ydi Shavkat Mirziyoyev. — Ular zamonaviy loyihalarni hamohang bo'lishi kerak. Shuning uchun qurilish, energetika, kommunal, ekologiya, irrigatsiya, transport kabi hamma tegishli sohalaridagi qonunlarni, standartlarni jahonning eng yuqori talablariga muvofiq takomillashtirish zarur.

Prezident Bosh reja asosida yil oxiriga qadar batafsil loyihalash ishlari yakunlash, birinchi bosqich inshootlari bo'yicha loyihachi va quruvchi korxonalarini aniqlash bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Nima uchun bu loyihani shoshmasdan, qayta-qayta ko'ryapmiz? Bu shahar yuz yillab xalqqa xizmat qilishi kerak. Odamlar birinchi o'rinda bo'lishi, kelajakdagi qurilishlar ham inobatga olinishi zarur. Birinchi bosqich mukammal qurilsa, maktab bo'ladi, — dedi davlat rahbari.

Bo'lajak binolar va infratuzilma ekspluatatsiyasini hozirdan o'ylash, bu bo'yicha mutaxassislar tayyorlash zarurligi ta'kidlandi.

O'z.A.

Muloqot

ALOQALAR DO'STLIK VA SHERIKLIK RUHIDA IZCHIL RIVOJLANMOQDA

Shu kunlarda Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi O'zbekiston delegatsiyasi rasmiy tashrif bilan Belarus Respublikasida bo'lib turibdi.

Kecha Senat Raisi boshchiligidagi mamlakatimiz delegatsiyasi Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko tomonidan qabul qilindi.

Ta'kidlash joizki, Belarus O'zbekistonning MDHdagi an'anaviy hamkorlaridan biridir. Mamlakatlar o'rtasidagi aloqalar do'stlik va sheriklik ruhida izchil rivojlanib bormoqda.

Uchrashuv davomida ikki tomonlama hamkorlikni rivoj-

lantirish, parlamentlararo munosabatlarni yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama etildi. Suhbatda parlamentlararo muloqot samarali rivojlantirishga muhim hissa qo'shishi, mamlakatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash bo'yicha yangi taklif hamda tashabbuslarni muhokama qilish va ishlab chiqish uchun samarali maydonga aylanishi ta'kidlandi.

O'zbekiston va Belarus

xalqaro hamda mintaqaviy tashkilotlar — BMT, MDH, SHHT doirasida konstruktiv hamkorlik qilmoqda.

Muloqot chog'ida O'zbekiston — Belarus biznes doiralari va tadbirkor ayollar birinchi biznes forumiga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu tadbir ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga muhim hissa qo'shishi, mamlakatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash bo'yicha yangi taklif hamda tashabbuslarni muhokama qilish va ishlab chiqish uchun samarali maydonga aylanishi ta'kidlandi.



Eksklyuziv suhbat

TARIXIY HAMJIHATLIK VA QARDOSHLIK RISHTALARI BARDAVOM

Mustaqil taraqqiyot yillari davomida O'zbekiston bilan Qozog'iston o'rtasidagi munosabatlar o'zaro hurmat, ishonch va manfaatli sheriklik ruhida, ikki mamlakat xalqlarining ko'p asrlik tarixiy, ma'naviy va madaniy umumiyligidan kelib chiqqan holda do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va o'zaro hurmatning mustahkam tamoyillari asosida barpo etilmoqda.

Hamkorlik uchun mustahkam huquqiy asoslar yaratilgan. Jumladan, Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnoma hamda davlatlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning asosiy tamoyillarini belgilab beruvchi boshqa qator hujjatlar asosida mustahkamlanmoqda.

Mamlakatimiz mustaqilligining 32 yilligi keng nishonlanayotgan shukuhli kunlarda Qozog'iston Respublikasining O'zbekiston Respublikasidagi Favqulodda va muxtor elchisi Beybut ATAMQULOV muxbirimiz savollariga javob berdi.



Prezident tashrifidan keyingi o'ylar...

SAMARQAND: DAVRGA HAMNAFAS, KELAJAKKA ISHONCH



Davlatimiz rahbari dunyo nigohida mamlakatimizning o'ziga xos "tashrif qog'ozi" bo'lgan Samarqandga o'z gacha mehr bilan qaraydi. Shuning uchun ham har gal viloyatga borganida, yutuqlardan quvonadi, kuyunchaklik bilan kamchiliklarni bartaraf etish yo'l-yo'riqlarini ko'rsatadi. O'rta bo'g'in rahbarlaridan natijadorlikni talab qiladi.

3-sahifaga qarang.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

INSON QADRINI ULUG'LASH, MANFAATLARINI HUQUQIY KAFOLATLASH

QABUL QILINAYOTGAN QONUN LOYIHALARIDA AKS ETMOQDA

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda dastlab Prezidentimizning mamlakatimiz mustaqilligining o'ttiz ikki yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida ilgari surilgan tashabbuslar, xalqimiz farovonligini yuksaltirish yo'lida so'ngi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar xususida so'z yuritildi. Parlament ishini ushbu dasturlamal nutqdan kelib chiqib yanada samarali tashkil qilish, bu bo'yicha belgilangan chora-tadbirlar asosida izchil va qizg'in faoliyat yuritish zarurligiga urg'u berildi.

Shuningdek, majlisda deputatlar jamiyat hayotini yanada isloh qilish, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandlegini kafolatlashga oid bir qator qonun loyihalarini mufassal ko'rib chiqildi.

Xususiyashtirishda yangi uslublar joriy etilmoqda

"Davlat mulkini xususiyashtirish to'g'risida"gi qonun loyihasi muhokamasida ta'kidlanganidek, amaldagi "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish to'g'risida"gi Qonunda davlat mulki ob'ektlarini xususiyashtirish jarayonlarini ochiq va oshkorlik, qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshirish, xaridorlarning ommaviy savdolarida ishtirok etishlari uchun teng sharoitlar yaratish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy asoslari o'z aksini topmagan.

Mazkur hujjatda xususiyashtirishning

faqat 2 ta (kimoshdi, tanlov) uslub nazarda tutilgani, davlat aktivlarini elektronlayn auksion savdolarida sotish haqidagi normalar mavjud emasligi hamda xususiyashtirish sohasida davlat organlari vakolatlarining chegaralari aniq belgilanmagan qonunning islohotlar talablariga javob bermasligini ko'rsatdi.

Taklif etilayotgan qonun loyihasi bilan xususiyashtirishning barcha bosqichi, prinsiplari to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi qonun darajasida batafsil mustahkamlanmoqda. Xususiyashtirishning qonuniylik, ochiqlik va shaffoflik, hisobdorlik, teng raqobat muhitini ta'minlash hamda korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik kabi prinsiplari belgilanyapti.



ALOQALAR DO‘STLIK VA SHERIKLIK RUHIDA IZCHIL RIVOJLANMOQDA

Erishilgan shartnoma hamda kelishuvlar ijrosi ustidan ta'sirchan parlament nazorati o'rnatilishi ahamiyati haqida alohida to'xtalib o'tildi. Qo'shma tadbirlar orqali gender tengligiga erishish va Belarus ayollar ittifoqi bilan hamkorlikni mustahkamlash zarurligi qayd etildi.

PARLAMENTLARARO MUNOSABATLAR ISTIQBOLLARI

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboeva Minskda Belarus Respublikasi Milliy Majlisi Respublika kengashi raisi Natalya Kochanova bilan uchrashuv o'tkazdi.

Qayd etilganidek, O'zbekiston va Belarus o'rtasidagi munosabatlar har tomonlama mustahkamlanib, mamlakat rahbarlarining birgalikdagi sa'y-harakatlari tufayli munosabatlar o'zaro ishonch va do'stona muhitda rivojlanayapti.

Muntazamlik kasb etgan o'zaro muloqotlar parlamentlararo hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish imkonini berayotir. Ushbu jarayonda ikki davlat parlamentlari yuqori palatalariga tuzilgan parlamentlararo do'stlik guruhlari muhim o'rinni tutadi.

Qonun ijodkorligi, gender tenglik va yoshlar siyosati sohasida o'zaro tajriba almashish, huddudlar forumi o'tkazirish qo'llab-quvvatlash hamda o'rtasidagi munosabatlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, shuningdek, raqamli rivojlanish sohasida hamkorlikni yo'lga qo'yish kabi masalalar yuzasidan takliflar ilgari surildi.

Ikki davlat o'rtasida turli sohalarida erishilgan kelishuvlarni parlamentlar faoliyati doirasida huquqiy jihatdan ta'minlashga kelishib olindi.

Oliy Majlis Senati va Milliy Majlis Respublika kengashi o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi memorandumning imzolanishi munosabatlarga yangicha sur'at bag'ishlashiga umid bildirildi.

O'z navbatida, bo'lajak forum ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga, mamlakatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash bo'yicha yangi takliflarni muhokama qilish va ishlab chiqish uchun samarali yuqoriga aylanishiga alohida e'tibor qaratildi. Ta'kidlanidek, forumning yakuniy hujjati (deklaratsiya) ikki mamlakat tadbirkor ayollari ishtirokida yangi qo'shma biznes loyihalari amalga oshirishga xizmat qiladi.

Oliy Majlis Senati Raisi T. Norboeva Belarus Respublikasi Milliy Majlisi Respublika kengashining faxriy mehmonlar kitobida dast-xat yozib qoldirdi.

Shundan so'ng ikki tomonlama hamkorlik bo'yicha hujjatlarni imzolash marosimi bo'lib o'tdi.

Tomonlar Belarus Respublikasi Milliy Majlisi Respublika kengashi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi, Belarus Respublikasi Milliy Majlisi huzuridagi O'shlar kengashi (parlamenti) va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati huzuridagi O'shlar parlamenti o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi hamda Belarus ayollar ittifoqi jamoat birlashmasi hamda O'zbekiston Respublikasi Kambag'alikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi memorandumlarni imzoladilar.

AYOLLAR TADBIRKORLIGINI QO'LLAB-QUVVATLASH BO'YICHA HAMKORLIK KUCHAYTIRILADI

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboeva Belarus Respublikasiga tashrifi doirasida Belarus Bosh vaziri Roman Golovchenko bilan uchrashdi.

Muloqotda savdo-iqtisodiy hamkorlik mustahkamlanib borayotgani, o'zaro tovar ayiriboshlash hajmi bir necha barobar ortib, 2022 yilda 500 mln. dollardan oshgani, joriy yil boshidan buyon ushbu ko'rsatkich yana 37 foizga (346 mln. dollar) o'sgani e'tirof etildi. Shuningdek, o'zaro tovar ayiriboshlash hajmini 1 mlrd. dollarga yetkazish uchun quonuchilik darajasida birgalikda amalga oshiriladigan ishlarni yo'lga qo'yish zarurligi ta'kidlandi.

O'zbekiston Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan hukumatlararo komissiyaning 10-majlisini o'tkazishga hozirlik ko'rilmog'da. Uchrashuvda ikki mamlakat o'rtasida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishning huquqiy jihatlariga ko'mak berish yuzasidan fikr almashildi.

Ta'kidlanidek, huddudlar forumi tufayli mamlakatlarimiz huddudlari o'rtasida aloqalar rivojlanmog'da. Shu nuqtayi nazardan, ushbu tadbirni o'tkazish amaliyotini davom ettirish muhim hisoblanadi. Uchrashuvda o'zaro hamkorlikni kengaytirish va iqtisodiyotning turli tarmoqlarida istiqbolli loyihalarni ilgari surishdan, shuningdek, huddudlararo aloqalar hamda madaniy-gumanitar almashinuvni mustahkamlashdan ikki tomon ham manfaatdor ekanini alohida qayd etildi.

Muloqot yakunida ayollarni tadbirkorlik va innovatsion faoliyatga, IT sohasiga, biotexnologiyaga faol jalb etish, ularni zamonaviy kasb-hunarlariga o'rgatish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarning qo'shma rejasi ishlab chiqish va amalga oshirish masalasini muhokama qilishga kelishib olindi.

“Xalq so‘zi”.

INSON QADRINI ULUG‘LASH, MANFAATLARINI HUQUQIY KAFOLATLASH

QABUL QILINAYOTGAN QONUN LOYIHALARIDA AKS ETMOQDA

Shuningdek, amaldagi qonunda belgilanmagan elektron-onlayn auksion, tanlov va birja, muzokaralarga ommaviy taklif qilish, raqobatga asoslangan muloqot asosida sotish, korxonani va ko'chmas mulk ob'yektini boshqa jamiyatning ustav fondiga kiritish va korxonalarni kengchalik sotish sharti bilan ijara qabul kabi xususiyashtirishning yangi 8 ta uslubini kiritilmoqda.

Eng muhimi, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishi munosabati bilan xususiyashtirilgan mulkning daxsizligini kafolatlash belgilanmog'da.

Majlisda qonun loiyhasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi munosabatlar tartibga solinadi

Majlisda ko'rib chiqilgan navbatdagi hujjat — “To'lovga qobiliyatsizlik sohasi takomillashtirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi qonun loiyhasi bo'ldi.

Mamlakatimizda tadbirkor va ishlabarmonlarning erkin faoliyat yuritishlari uchun zarur huquqiy asos hamda sharoitlar yaratib berilmog'da. Bu yangi korxonalar tashkil qilinishida, mavjudlari faoliyatining kengayishida, pirovard natijada esa ko'plab yangi ish o'rinlari ochilishida muhim ahamiyat kasb etmog'da.

Ta'kidlanishicha, 2022 yil 12 aprelda yangi tahrirda qabul qilingan “To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida”gi Qonun to'lovga qobiliyatsizlik holatiga tushgan tadbirkorlik sub'yektlarini tugatib yuborish emas, balki moliyaviy sog'lomlashtirish hamda sohada vujudga kelayotgan yangi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishga qaratilgan bilan ahamiyatidir.

Mazkur qonunning amaliyotda to'laqonli ijrosini ta'minlash maqsadida amaldagi qonun hujjatlarini ushbu jihatga muvofiqlashtirish zarur. Shu bois mazkur qonun loiyhasi bilan 7 ta kodeks va 18 ta qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklifi etilyapti.

Deputatlarning fikricha, ushbu hujjatning qabul qilinishi orqali amaldagi qonun hujjatlari “To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida”gi Qonunga muvofiqlashtiriladi. To'lovga qobiliyatsizlik holatidagi korxonalarga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlikning sodir o'lashtirish tartib-taomillarini qo'llash orqali ularning faoliyatini tiklash va istiqbol-siz korxonalarni tugatish samaradorligi oshiriladi.

Savol-javoblar va uzoq davom etgan tortishuvlardan so'ng qonun loiyhasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

O'zbekiston yana bir xalqaro investitsiya jamg'armasiga a'zo bo'ladi

Deputatlar tomonidan “Turkiy investitsiya jamg'armasini ta'sis etish to'g'risidagi Bitimni (Anqara, 2023 yil 16 mart) ratifikatsiya qilish haqida”gi qonun loiyhasi birinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Mazkur qonun loiyhasi “O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida”gi Qonunning 18-moddasiga muvofiq, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, Turkiy investitsiya jamg'armasini ta'sis etish bo'yicha 2019 yilda Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashining 7-sammitida davlat rahbarlari tomonidan ma'qullangan. Shuningdek, Kengashning 2021 yildagi norasmiy sammitida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Turkiy investitsiya jamg'armasini ta'sis etishni jadallashtirish tashabbusi qilingan.

Turkiy investitsiya jamg'armasini ta'sis etish to'g'risidagi Bitimning asosiy maqsadi — Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlar o'rtasida mintaqaviy savdoni va iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiyotni rivojlantirishdan iborat. Ushbu Bitim Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo davlatlar o'rtasida Turkiy investitsiya jamg'armasini ta'sis etishni hamda uning huquqiy maqomini belgilovchi asosiy hujjat hisoblanadi.

Shu bilan birga, Turkiy investitsiya jamg'armasi doirasida hamkor davlatlar, jumladan, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkiya bilan investitsiyaviy loyihalarni, xususan, elektrotexnika, yengil sanoat, avtosanoat, charmsanoat, qurilish materiallari sohaslarida qo'shma sanoat kooperatsiyasi kabi loyihalarni birgalikda amalga oshirishga xizmat qiladi.

Jamg'armaning mablag'ari mintaqalararo savdo, qo'shma loyihalar, “yashil” iqtisodiyot, axborot texnologiyalari, transport, logistika va boshqa sohalarni rivojlantirishga qaratiladi.

Deputatlarning ta'kidlashicha, mazkur qonun loiyhasining qabul qilinishi O'zbekiston Respublikasining yana bir xalqaro investitsiya jamg'armasiga to'liq ulush bilan a'zolik qilishga huquqiy asos yaratadi.

Qizg'in bahs-munozaralardan so'ng qonun loiyhasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

Qishloq xo'jaligi sohasidagi ma'muriy islohotlar

Ma'muriy islohotlar doirasida qishloq xo'jaligi va ozuq-ovqat sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilishga qaratilgan — “O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga respublika ijro etuvchi hokimiyati organlarining nomlarini muvofiqlashtirishga qaratilgan o'zgartirish kiritish to'g'risida”gi qonun loiyhasini deputatlar birinchi o'qishda muhokama qildilar.

Ta'kidlanidek, so'nggi yillarda mamlakatimizda samarali faoliyat yurituvchi boshqaruv tizimini shakllantirish bo'yicha keng ko'lami ma'muriy islohotlar amalga oshirilmog'da. Xususan, davlat organlarining vazifalariga oid bo'lmagan yuklamalarni qisqartirish, sohaga zamonaviy boshqaruv tizimini joriy etish va raqamli texnologiyalardan keng foydalanish orqali ularning tuzilmasi o'rtaacha 15 foizga muqobilashtirildi, shuningdek, 26 ta davlat organi va tashkilotida 40 ta rahbar o'rinbosari lavozimlari qisqartirildi.

Shuningdek, yangi O'zbekiston sharoitida zamonaviy talablarga javob beradigan ixcham davlat boshqaruv tizimini shakllantirish, qoror qabul qilish va masalani ko'rib chiqish jarayonlarini soddalashtirish orqali davlat organlari rahbarlarining mas'uliyatini oshirish hamda ular faoliyatini natijadorlikka yo'naltirish asosiy maqsad sifatida qaralmog'da.

Mazkur qonun loiyhasi qishloq xo'jaligi sohasida islohotlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo'yicha belgilangan vazifalarni qonunchilik hujjatlarida aks ettirishga qaratilgan. Bunda vazirlik va uching huddudiy tuzilmalar nomlari bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishida nомуvofiqliklarni bartaraf qilish nazarda tutildi. Loyihada O'zbekiston Respublikasining 10 dan ortiq

qonunlariga Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi ayrim respublika ijro etuvchi hokimiyati organlarining nomlarini amaldagi qonunchilikka muvofiqlashtirish yuzasidan tegishli o'zgartirishlar kiritilmog'da. Xususan, Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi, O'simliklar karantini va himoyasi agentligi Qishloq xo'jaligi vazirligi tasarrufiga o'tkazilgan respublika ijro etuvchi hokimiyati organlari hisoblanadi.

Mazkur qonun loiyhasining qabul qilinishi bilan Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi ayrim respublika ijro etuvchi hokimiyati organlarining nomlari amaldagi qonunchilikka muvofiqlashtirildi.

Majlisda qonun loiyhasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

Internetda tovlamachilik uchun jinoyi javobgarlik belgilanmog'da

Majlisda “O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va Jinoyat-prosessual kodekslariga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi qonun loiyhasi ham muhokamar markazida bo'ldi.

Bugungi kunda internet tarmog'idan foydalangan holda shaxslarning mobil qurilmalarini hamda ijtimoiy tarmoq va messenjerlardagi akkaunt va kanallarini zararli dastur yuborish orqali bloklab (to'sib) qo'yish, ma'lumotlarini o'chirib yuborish, o'zgartirish yoki olib qo'yish bilan qo'riqib pul undirish yoki boshqa moddiy manfaatdorlik talab qilish holatlari yuzaga kelmog'da.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar makonida qonunga xilof ravishda kriptoaktivlar aylanmasi bilan shug'ullanish, anonim kriptoaktivlar mayningini amalga oshirish hamda mobil qurilmaning xalqaro o'ziga xos identifikatsiya kodini qonuniy ishlab chiqaruvchisining ruxsatisiz o'zgartirish kabi huquqbuzarlik holatlari ko'payib boryapti.

Taklif etilayotgan qonun loiyhasi bilan internetda tovlamachilik, noqonuniy kriptoaktivlar aylanmasi va mayningi bilan shug'ullanilgan uchun jinoyi javobgarlik hamda mobil qurilmaning xalqaro o'ziga xos identifikatsiya kodini qonuniy ishlab chiqaruvchisining ruxsatisiz o'zgartirish, shuningdek, ushbu maqsadda maxsus dasturlar ishlab chiqish, o'tkazish yoki ularidan foydalanish uchun ma'muriy javobgarlik belgilanmog'da.

Qonun tashabbuskorlarining ma'lum qilishicha, noqonuniy kriptoaktivlar aylanmasi va mayningi bilan shug'ullanish, agar ular tayyorgarlik ko'rilyotgan yoki sodir etilayotgan jinoyat haqida o'z ixtiyori bilan arz qilgan va uni ochishga faol yordam bergan bo'lishsa jinoyi javobgarlikdan ozod qilinadi.

Mazkur qonun loiyhasining qabul qilinishi kelgusida axborot texnologiyalari yordamida sodir etilgan jinoyatlarni fosh qilish, ularga qarshi kurashish hamda tergovda barcha kuch va vositalarni to'laqonli yo'naltirishga, shuningdek, kriptoaktivlar aylanmasi sohasidagi qonunchilik hujjatlarini buzish va qonunga xilof ravishda mayningini amalga oshirish uchun javobgarlik doirasini aniq norma bilan belgilanishga xizmat qiladi.

Muhokamalar davomida deputatlar tomonidan qonun loiyhasini yanada takomillashtirish, pishiq-puxta holatga keltirish bo'yicha bir qator asosli takliflar berildi. Qizg'in bahs-munozaralardan so'ng deputatlar qonun loiyhasining zaruratini hisobga olib, uni birinchi o'qishda qabul qildilar.

Fuqarolarning konstitusiyaviy huquq va erkinliklari himoyasi ta'minlanadi

Deputatlar tomonidan “O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga va O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi qonun loiyhasi ko'rib chiqildi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, bu borada konstitusiyaviy-huquqiy, qonunchilik, institusional va amaliy kafolatlarni mustahkamlashga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmog'da.

Bugungi kunda davlatimiz inson huquqlari bo'yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatlariga, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 6 ta asosiy shartnomasi va 4 ta fakultativ protokolga qo'shilgan bo'lib, ularning amalga oshirilishi yuzasidan BMtning Inson huquqlari bo'yicha kengashi va shartnomalari qo'mitalariga muntazam ravishda milliy ma'ruzalarni taqdim etib kelmog'da.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasidan ham inson qadriini ulug'lashga doir ustuvor vazifalar o'rini olgani, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda inson huquqlariga oid normalar soni 3,5 barobarga oshgani yurtimizda insonga bo'lgan e'tibor qay darajada yuqori ekanligidan dalolat beradi. Zero, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar markazida, eng avvalo, inson qadriini ulug'lashga qaratilgan ezgu g'oya mujassamdir.

Shuningdek, mamlakatimizda oilalar mustahkamligini, ularda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash, jamiyat farovonligini yuksaltirishga qaratil-

gan tizimli islohotlar olib borilmog'da. Xususan, Asosiy Qonunimizning 76-moddasida oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hamda u jamiyat va davlat muhofazasida ekanligi, nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqligiga asoslanishi mustahkamlab qo'yildi.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga qaramay so'nggi paytlarda respublikada faqatgina diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikohlar soni va buning ortidan ko'pxotinlik holatlari ortib bormog'da. Shuningdek, reklama, ko'ngilochar va tahliliy materiallar orqali ko'pxotinlik va uning “afzalliklari”ni targ'ib qilish yo'l almog'da. Buning oqibatida qonuniy nikohsiz tugilgan bolalar soni ham oshgan.

Xususan, 2022 yilda respublika bo'yicha 18 955 ta holatda tug'ilgan chaqaloqlar yolg'iz ona arzisi asosida qayd etilgan. 2021 yilda ushbu ko'rsatkich 19 037 tani, 2020 yilda 16 564 tani tashkil qilgan.

Nikoh belgilangan tartibda FHDYO organlarida qayd etilmagan otalikin belgilash, alimment tayinlash, meros masalalariga oid turli muammolarni keltirib chiqarib, natijada fuqarolarda, ayniqsa, ayollarda davlatning huquqiy siyosatiga nisbatan bo'lgan ishonch yo'qolishiga sabab bo'lmog'da.

Bundan tashqari, jinoyi va ma'muriy qonunchilikda milliy, irqiy, etnik va diniy adovat qo'zg'atganlik uchun javobgarlik belgilangan bo'lsa, ushbu moddalar yetarlacha aniq buyon etilmaganligi adovat qo'zg'atuvchi materiallar mualliflarining harakatlarga huquqiy baho berish va malakalash imkonini bermayapti.

Qolaversa, so'nggi paytlarda gender tengsizlikni ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali targ'ib etish holatlari ham uchrab turibdi. Bunday holat esa “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi Qonunga asosan jins bo'yicha bilvosita kamstirish hisoblanadi.

Ushbu harakatlar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlar to'laqonli bajarilishiga ham to'siq bo'ladi. Xususan, 1979 yil 18 dekabrda Nyu-Yorkda qabul qilingan Xotin-qizlarni kamstirishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiyada (O'zbekiston Konvensiyaga 1995 yil 6 mayda qo'shilgan) ishtirokchi davlatlar bu kabi xatti-harakatlarga nisbatan qonunlar bilan aniq javobgarlik choralari belgilash shartligi qayd etilgan.

Bosh qomusimizda unda belgilangan huquq va erkinliklarni faqat qonunga muvofiq va faqat konstitusiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqini, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash maqsadida zarur bo'lgan doirada cheklanishi mumkinligi nazarda tutilgan.

Shundan kelib chiqib, taklif etilayotgan qonun loiyhasi bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish orqali milliy, irqiy, etnik yoki diniy mansubligiga qarab bir toifa fuqarolarning boshqa toifa fuqarolardan ustunligini yoki nuqsolini ekanligini targ'ib qilganlik, nikohi qonunda belgilangan tartibda qayd etilmagan shaxslar o'rtasida nikoh tuzishga doir diniy marosimni amalga oshirganlik uchun ma'muriy va jinoyi javobgarlikni belgilash nazarda tutilmog'da.

Shu bilan birga, ikki yoki undan ortiq xotin bilan er-xotin bo'lib yashashni targ'ib qilganlik, xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligini o'chiqdan-o'chiq inkor etganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilanmog'da.

Jamoat tartibini saqlash bo'yicha ko'rilyotgan choralarda, xususan, “Xavfsiz shahar” konsepsiyasi doirasida joriy etilgan axborot dasturlarining samaradorligini yanada oshirish maqsadida jamoat joylarida shaxsini identifikatsiya qilish imkonini bermayotgan darajada yuzini to'sgan holda bo'lganlik uchun ma'muriy javobgarlik chorasini kiritilmog'da. Bunda javobgarlikni istisno qiluvchi holat sifatida tibbiy ko'rsatma asosida yoki mehnat va xizmat faoliyati bilan bog'liq holatlarda yoxud yo'l-transport harakatida xavfsizlikni ta'minlash uchun kiyiladigan maxsus bosh-kiyimda yoki sport va madaniy tadbirlar paytida ularning ishtirokchilari tomonidan, shuningdek, qonunchilikda ruxsat etilgan boshqa holatlarda yuzini to'sgan holda bo'lish holati belgilanmog'da.

Loyiha bilan kiritilishi nazarda tutilayotgan javobgarlik choralari bir qator xorijiy, jumladan, Fransiya, Avstriya, Daniya, Belgiya, Bolgariya, Shveysariya, Turkiya, Marokash, Qozog'iston, Hindiston, Indoneziya kabi mamlakatlarda ham qo'llaniladi.

Majlisda qayd etilganidek, ushbu qonun loiyhasining qabul qilinishi jamiyatda millatlararo tovluvchini, diniy bag'rikenglikni yanada mustahkamlashga hamda xotin-qizlar va bolalar huquqlarini ishonchli himoya qilishga, shuningdek, jamoat tartibini saqlash bo'yicha ko'rilyotgan sa'y-harakatlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Muhokamalar davomida deputatlar qonun loiyhasidagi ayrim normalar yuzasidan bir qator savollarni o'rtaqa tashlashdi. Loyihani yanada takomillashtirish, pishiq-puxta holatga keltirish bo'yicha o'z fikr-mulohazalari, taklif va tavsiyalarini bildirdi.

Qizg'in savol-javoblar va uzoq davom etgan tortishuvlardan so'ng qonun loiyhasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

So‘z — deputatlarga

Jamshid QOSIMOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:

— Xususiyashtirish — iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirib, mulkdorlar ko'payishiga yo'l ochadi. Shu bois mamlakatimizda so'nggi yillarda qulay investitsiyaviy muhiti yaratish, xususiy mulk egalari-



yalarda ham qizg'in muhokama qilindi. Takliflar, fikr-mulohazalar o'rtaga tashlandi. Albatta, bularning barchasi qonun loiyhasini ikkinchi o'qishga tayyorgarlash o'z ko'lageladi.

Javlon ERGASHEV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:

— Bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi korxonalar safi kengayishi bilan ular orasida to'lovga qobiliyatsizlik holatidagi korxonalar va tashkilotlarning ham ortib borishi tabiiy. To'lovga qobiliyatsiz korxonalarning tugatilishi hamkor tashkilotlar o'rtasida nizolar, ular faoliyatiga salbiy ta'sirlar va boshqa ko'plab ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi.



Bunday masalalarni huquqiy jihatdan qonun bilan tartibga solish o'ta muhim hisoblanadi. Mamlakatimizda to'lovga qobiliyatsizlik holatlari “Bankrotlik to'g'risida”gi Qonun bilan tartibga solingan. Biroq bugungi kunda butun dunyoda ro'y berayotgan keskin iqtisodiy o'zgarishlar bu sohaga ham o'z

ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. To'g'ri, 2022 yil 12 aprelda yangi tahrirda “To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida”gi Qonun qabul qilingan. Biroq bugungi kunda dunyoda ro'y berayotgan ichkil iqtisodiy o'zgarishlar bu sohanning huquqiy asosini yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

Taklif qilinayotgan “To'lovga qobiliyatsizlik sohasi takomillashtirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi qonun loiyhasi tizimdag mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan. Ushbu hujjat jismoniy shaxslarning to'lovga qobiliyatsizligi to'g'risidagi munosabatlarni tartibga solishning huquqiy asoslari mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Shahnoza XOLMAXAMATOVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:

— So'nggi yillarda mamlakatimizda arxiv ishi va ish yuritish sohasida zarur infratuzilma yaratildi, arxiv hujjatlarini jamlash, hisoblash, saqlash va ularidan foydalanish borasida ijobiy natijalarga erishildi. Shuningdek, Milliy arxiv fondi O'zbekiston xalqining moddiy va ma'naviy hayotini aks ettirgan, tarixiy,

Ayrim byurokratik tartib-taomillar bekor qilinadi

Majlisda “Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish tizimi soddalashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida”gi qonun loiyhasi muhokama ham qizg'in kechdi.

Shu yil 18 avgust kuni tadbirkorlar ishtirokida o'tkazilgan ochiq muloqotda davlatimiz rahbari tomonidan tadbirkorlarning soliq idoralari bilan bo'ladigan barcha nizolari ma'muriy sud vakolatiga o'tkazilishi, shuningdek, ularning to'g'ridan-to'g'ri sudga shikoyat qilishidagi har qanday cheklovlar olib tashlanishi ta'kidlangan edi.

Taklif etilayotgan loyiha bilan 4 ta hujjatga — Soliq kodeksi, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi, “Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlarni to'g'risida”gi hamda “Xo'jalik shirkatlari to'g'risida”gi qonunlarga tadbirkorlik sub'yektlariga qator yengilliklarini yaratishga qaratilgan o'zgartirishlar kiritilmog'da.

SAMARQAND: DAVRGA HAMNAFAS, KELAJAKKA ISHONCH



O'zgarishlar Prezidentni ham, xalqni ham qoniqtirishi kerak

Davlatimiz rahbari joylarda davr bilan hamqadam bo'lmayotgan, xalqning roziligini og'zida shior qilib, amalda rioya etmayotgan, o'z sohasini tortolmayotgan tasodifiy rahbarlarning javobini berib, o'rniqa iqtidorli, shijoatli yoshlarni tayinlaydi. Vatan istiqbolini, mustaqilligini fidoyilik, safarbarlik bilan mustahkamlash hammasi uchun hayot-mamot masalasi ekanini bot-bot takrorlaydi. Prezidentimizning Samarqandga bu g'ali tashrifi ham ana shunday ishchanlik sharoitida kechdi.

Uch ming yillar davomida Buyuk Ipak yo'lining "oltin belbog'i" bo'lgan Samarqandni butun dunyo ahli biladi. "Qani endi, bir marta Samarqandga borsam, bu afsonaviy shahardagi tarixiy obidalarni, ziyoratgohlarni ko'rsam", deb orzmand bo'lib yurganlarning esa son-sanog'i yo'q. Ayni shu ma'noda, bu yerda tadbirkorlik, investitsiya, sanoat, turizm sohalari daga imkoniyatlar cheksiz. Ammo dunyoga dong'i ketgan bu diyorda odatiy holga aylangan chiroq o'chib-yonishi nafaqat aholini, xususan, mehmonlarni ham ranjitib qo'yayotgani bor gap.

Elektr iste'moli oshayotgani hisobiga bu yil viloyatda elektr taqchilligi 2022 yildagidan ko'proq bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun Oqdaryo va Pastdard'omdagi nimstansiyalarni yangilash, yil yakunigacha Kattaqo'rg'on tumani va Samarqand shahrida quvvati 250 megavatt bo'lgan 2 ta quyosh fotoelektr stansiyasini ishga tushirish vazifasi qo'yildi.

Faollar bilan uchrashuvda o'tgan yetti oyda viloyatda 600 mln. dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilgani haqida so'z bordi. Lekin uning 78 foizi Samarqand shahri, Kattaqo'rg'on, Pastdard'om va Samarqand tumanlari hissasiga to'g'ri kelyapti. Qolgan tumanlarda bu borada natijadorlik ko'rinmayapti.

"Albatta, Samarqandda o'zgarishlar bo'ldi. Bu Prezidentni qoniqtiradimi yoki yo'qmi? Meni qoniqtirmaydi. Samarqandning odamlari bu islohotlar ularning uylariga, xonadonlariga qachon kirib kelar ekan, deb kutib o'tiribdi. Joylardagi hokimlar "uyg'onish" kerak, aks holda, ularni lavozimidan ketishga majbur qilamiz", dedi davlatimiz rahbari.

Yoshlar munosib haq to'lanadigan ish joylariga qiziqadi

Prezidentimiz hududlarga borganida, eng avvalo, aholining qanchasi muhojirlikda ishlayotgani bilan qiziqadi, ularni munosib ish o'ri yaratish hisobiga o'z uyi, o'lan to'shigiga qaytarish choralarini ko'radi. Iqtidorli yoshlarni xorijdan chaqirib olib, Vatan ravnaqi yo'lida faoliyat ko'rsatishiga imkon yaratishni shaxsan o'zi nazorat qiladi.

Prezident aytganiday, har bir hokim hududidagi imkoniyatdan to'g'ri foydalanib, odamlarga ish o'rni yaratmasa, buni chetdan kelib hech kim bajarmaydi. Aholini, ayniqsa, yoshlarni ishlil qilish, ularning tirikchilik ilinjida uzoq o'lkalarga uloqib ketishlariga barham berish uchun munosib haq to'lanadigan ish joylari yaratish lozim.

"Samarqand viloyatida 150 ming ish-siz bor, 220 ming nafari chetda yuribdi. Odamlarni daromadli qilsa bo'ladimi, kim qiladi shuni? 14 ta tuman va 2 ta shahar rahbarlari qiladi. Mening niyatim — ularni tezroq qaytarib olib kelish, sharoit va ish o'rnlari yaratish. O'yaymanki, ular rozi bo'ladi va mening ham niyatlarim amalga oshadi", dedi davlat rahbari. Ana shu maqsadda mahallalarda tadbirkorlik va dehqonchilikni qo'llab-quvvatlash, uzum va pista yetishtirishni ko'paytirish, serqatnov yo'llar bo'yida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish masalalari kun tartibiga qo'yildi.

"Urgut" erkin iqtisodiy zonasining 15 ta tumandagi hududi va viloyatdagi 106 ta sanoat zonasini infratuzilma bilan ta'minlash uchun shu yilning o'zida 170 mlrd. so'm ajratilgan. Lekin 620 gektar yer maydoni hali ham bo'sh turibdi.

Hozirgi paytda mutasaddi rahbarlar tomonidan ana shu joylarga tadbirkorlar jalb etilyapti.

Bugungi kunda viloyatda turizm sohasida 20 mingta doimiy ish o'rni yaratish va eksportni 500 mln. dollarga yetkazish imkoniyati bor. Ana shuning uchun jozibador dasturlarni ko'paytirish, yo'llarni va jamoat transportini qulay qilish uchun ish olib borilyapti. Viloyatning turizm salohiyati yuqori bo'lgan 100 ta mahalla va qishloqda "turizm ipotekasi" dasturi asosida yangi sayohat manzillari ochish bo'yicha sa'y-harakatlar boshlandi.

— Yoshlarga munosib haq to'lanadigan ish o'rnlari yaratish butun dunyoda dolzarb. Prezidentimiz Samarqandda bo'lganida ham shu masalani kun tartibiga qo'yd. Chunki xorijda yashab, mehnat qilish mashaqqatini boshidan o'tkazgan biladi, — deydi Jomboy tumandagi Nayman mahallasida yashovchi Shahzod Nurillayev. — Ota-onamning nasihatiga quloq solmay pul topish ilinjida bundan 3-4 yil avval xorijga ketdim. Ming bir xo'rliklarni, kamsitishlarni ko'rdim.

Xullas, otamning gapiga kirib uyga qaytdim. Hovlimizdagi bir so-tix tomorqa maydonida malina yetishtirilardi. Shu ish bilan astoydil shug'ullandim. Hozir ana shu ziroatchilik orqasidan yiliga 100 million so'mdan ziyod daromad o'lyapman. Astoydil yig'lasang, so'qir ko'zdan ham yosh chiqar, deydi. Ishni ham do'ndirdim, tayyorqarlik ko'rib, to'lov-shartnoma asosida Samar qand davlat universitetiga o'qishga qabul qilindim. Prezidentimiz yaratgan imkoniyatlardan foydalanib, 2-3 yil ichida ekin maydonini 3 gektarga yetkazdim. O'shlar uchun o'ndan ziyod ishchi o'rnlari yaratdim, ular ham o'z bizneslarini boshlayapti. Hozir o'qish xarajatlarni qoplayapti, mashina va uy ham sotib oldim. Biz yoshlar "pul ko'p ekan" deb, xorijni orzu qilmasdan, shu yerda ishlasak, oldimizga qo'yg'an niyat va maqsadlarimizga erishishimiz mumkinligini amalda ko'rdim. Bundan juda xursandman!

Musulmonlarning ikkinchi Ka'basini

Islom olamining quyoshi bo'lgan Imom al-Buxoriyning tabarruk qabri Samarqandda ekanini dunyo biladi. Buyuk muhaddis bobomiz Imom Abu Abdulloh al-Buxoriyning qabrini ziyorat qilish uchun har yili yurtimizga dunyoning turli burchaklaridan ming-minglab ziyoratchilar kelishadi. Shuning uchun davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2019 yilda bu yerda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi hamda Hadis ilmi maktabi tashkil etilgan edi. Bundan ikki yil muqaddam ushbu ziyoratgohda yangi loyiha bo'yicha rekonstruksiya ishlari boshlandi. O'tgan vaqt ichida bu yerda qariyb 10 ming namozxonaga mo'ljallangan masjid, to'rtta minor, ayvonlar barpo qilindi.

Davlatimiz rahbari Imom Buxoriy majmuasida davom etayotgan pardozlash ishlarini ko'zdan kechirib, mutasaddilarga tegishli ko'rsatmalar berdi. Bu islom olamida barcha mehmonlar uchun tabarruk ziyoratgoh sifatida eng obod va ko'rkam qadamlardan biri bo'ladi.

— Hadis ilmining sultoni sifatida dunyoda nom qozongan Imom Buxoriy singari allomalarni musulmon olamining faxri hisoblanadi, — deydi Al-Buxoriy yodgorlik majmuasi raisi Dehqonboy Ermamatov. — Prezidentimiz har gal Samarqandga kelganda qurilishlarni ko'zdan kechirib, kamchiliklarni ko'rsatadi, tuzatishlar kiritadi. Quruvchi va me'morlarimiz sa'y-harakati bilan bunyod qilinayotgan mahobatli yangi majmuaya xalqni bir ilm-ma'rifat shaharchasiga aylandi.

Aytish joizki, Imom al-Buxoriy majmuasi qurilishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarining eng yirigi hisoblanadi. Bu yerga kelgan mehmonlar yer osti galereyasi orqali Imom Buxoriy qabrini ziyorat qilish imkoniga ega bo'lishadi. Majmuada

gi olti asriqli qadimiy chinorlar, qaynab chiqayotgan buloq va hovuz avvalgi holicha saqlab qolingan bo'lib, alohida qarovga olingan. Ko'kalamzorlashtiriladigan maydonlar 2 gektardan ziyod bo'ladi. Majmua devorlari milliy naqshlar, pardozbop toshlar bilan sayqallanadi. Majmua atrofida ulkan uyubon, mehmonxonalar, mehmon xiyoli, ikki yon qismida infratuzilma ob'yektlari qurilmoqda.

Ishonamizki, dunyo islom olamidan bu yerga ziyoratga kelgan mehmonlar majmua salobati, betakrorligidan hayratga tushishi, zavqlanishi turgan gap. Umuman, bu yerda ziyoratchilar



uchun ham, ilmi toliblar uchun ham barcha sharoit mavjud bo'ladi.

"Ota-onangga, senga tarbiya berganlarga rahmatimni yetkazib qo'y!"

Davlatimiz rahbari hududlarga tashrifi chog'ida olindan belgilangan joylarga emas, aholi turmush tarzi bilan tanishish maqsadida kutilmaganda oddiy xonadonlarga, ta'lim muassasalariga kiradi, odamlarning kayfiyati bilan qiziqadi. Shuning uchun oqdaryolik faollar bilan uchrashuv doirasida tumandagi 32-umumta'lim maktabida bo'lib, bu yerda tadbirkorlar bilan hamkorlikda o'quvchilarni kasbga o'qitish tajribasi bilan tanishdi.

Ta'lim muassasasida o'quvchilarni 7-sinfdan boshlab mahalla va tumanda talab yuqori bo'lgan veterinar, agronom, meva-sabzavot quritish, ipakchi, melbelchi, avtomobil ustasi kabi 15 ta kasb-hunarga o'rgatish va 2 ta chet tili o'qitish yo'lga qo'yilgan. Bu ishlar mahalliy byudjet va tadbirkorlar hisobidan tashkil qilingan bo'lib, o'quvchilar o'z mehnatlari uchun ish haqi o'lyapti. Davlatimiz rahbari barcha viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari rahbarlariga Oqdaryoga borib, bir hafta davomida ushbu tajribani o'rganishni topshirdi.

— Men shu maktabning sobiq o'quvchisiman, — deydi "Nuroni" jam'ar-masi Samarqand viloyati bo'limi raisi Shuhrat Ne'matov. — Bu yerda yaratilgan shart-sharoitlarni ko'rib ku'ming quvonadi. Farzandlarimiz, nabiralarni tahsil olish bilan birga kasb-hunar o'rganishyapti. O'tgan yili maktabni bitirgan yoshlarning oliy ta'limga qamrovi 25 foizni tashkil etgan ekan. Bu yil 51 foizga chiqibdi. Maktabda rus, ingliz fransuz tillari o'qitiladi. Bu esa bitiruvchilarning til bilishiga, mehnat bozorida munosib o'rinni topishiga zamin bo'ladi.

"Joy akademiy" o'quv markazi asoschisi Shodiyorxon Abdvoviytov Singapur menejmentni rivojlantirish institutini tugallagan. Oqdaryolik bu yigit bugungi kunda dunyoning kuchli beshaligiga kiruvchi Harvard universiteti talabasi. U kelajakda o'zi tug'ilib o'sgan hudud yoshlarining ilm olishiga sharoit yaratishga ahd qilgan.

— Oqdaryoning Pichoqchi mahallasida tug'ilganman, shu yerda maktabni tamomlagach, nufuzli oliygohlarda o'qish sharafiga muayassar bo'ldim, — deydi Shodiyorxon Abdvoviytov. — Prezidentimiz bilan uchrashuvda Har-

vard universitetini bitirib, qishlog'imizga qaytish niyatim borligini aytdim. O'rgan-ganlarim, bor salohiyatimni yurtimiz ravnaqi uchun safarbar qilishga so'z berdim.

— O'g'lim Prezident bilan uchrash-ganida o'ta-onangga, senga tarbiya berganlarga rahmatimni, salomimni yetkazib qo'y, debdi. Bu so'zlardan boshim osmonga yetdi, nihoyatda faxrlandim, — deydi Shodiyorxonning otasi Tolibxon Abdjalilov.

Shu o'rinda aytish kerakki, Prezidentimiz tomonidan yoshlar ta'lim-tarbiyasi-ga qaralayotgan e'tibor, IT texnologiyalarining joriy etilishi katta samara

— Men 9 yil davomida Xitoy Xalq Respublikasining turli ilmiy tekshirish institutlarida faoliyat olib bordim, — deydi universiteti professori Xurshid Ozkoro'ly. — Ilmiy tadqiqot yo'nalishim onkologiya, kimyoterapiya sohasida dori vositalarini sintez qilishdan iborat. Bu ishlarni hamkorlikda olib borish uchun AQSH, Yaponiya, Germaniya va Xitoy davlatlaridan yetuk professor, olimlarni taklif etdim. Prezidentimiz bizning g'oyalarimizni qo'llab-quvvatlab, uni moliyalashtirish manbalarini ham belgilab berdi. Buning natijasida kelajakda onkologiya yo'nalishida dori vositalarini sintez qilib, sanoatga yetkazib beradigan, jahon farmbozorida katta ehtiyojga ega bo'lgan preparatlarning O'zbekiston brendini yaratish imkoniyati paydo bo'ldi.

— Bugungi kunda Biokimyo institutida 8 ta'lim yo'nalishida 2800 nafar talaba tahsil olmoqda. Umuman, universitetda 12 ta ilmiy va 67 ta o'quv laboratoriya bor. 2025 yilgacha ilmiy salohiyat 100 foizga yetkaziladi, — deydi Samarqand davlat universiteti rektori Rustam Xo'lmurodov. — Institutda O'zbekiston iqtisodiyotiga jolib ta'sir bera oladigan, ishlab chiqarish darajasigacha olib chiqadigan tadqiqotlar o'tkaziladi va amaliyotga tatbiq etiladi. Buning uchun imkon ham, rag'bat ham, sharoit ham bor. Biz endi turli ishlab chiqarish korxonalarini, zavod-fabrikalar bilan eksport qilish mumkin bo'lgan darajadagi yuqori intellektual qiymatga ega mahsulotlar bera olamiz. Buning uchun ilmiy salohiyatimiz ham yetarli.

"Bugun yangi O'zbekiston shiddatli rivojlani-sh yo'lidan bormoqda. Uchinchi Renessans xalqni bir maqsad yo'lida birlashtirdi, kelajak poydevoriga tamal toshi qo'yd. Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamlil islohotlar jarayonida Samarqand ham kundan-kunga o'zgaryapti, rivojlanyapti. Buni Prezidentimiz tashrifi-dan keyin yanada yangi marralarni ko'zlayotgan samarqandlik ziyolilar, ma'rifatchilar, tadbirkorlar, qo'yingki, oddiy odamlarning gap-so'zlaridan, kayfiyatidan ham bilib olsa bo'ladi. Ularning ertangi kunga, kelajakka bo'lgan ishonchi ustuvor. Ishonch bor joyda esa bunyodkorliklar, yangilani-shlar bardavomdir."

berayotir. Mana, masalan, Samarqand shahridagi 9-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi o'qituvchisi Shahnoza Ahmatovaning ko'plab shogird-o'quvchilari "Bir million dasturchi" loyihasi ishtirokchisi. O'zi esa mahalliy va xalqaro tanlovlarda qatnashib, ko'plab sertifikatga ega bo'lgan. Ayni vaqtda 1 ming AQSH dollaridan ko'proq oylik maosh oladi.

Universitet ilmiy salohiyati 100 foizga yetadi

Prezident tashrif buyurgan manzil-lardan yana biri — Samarqand davlat universiteti. Bu maskanda 25 mingdan ortiq talabalar ta'lim oladi. Uning tasarrufida Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi, Muhandislik fizikasi, Turkologiya ilmiy-tadqiqot institutlari tashkil etilgan.

Joriy yilda Biokimyo instituti univer-sitetning biologiya va kimyo fakultet-lari negizida ochildi. Ta'lim muassasasi uchun yettita yangi bino qurildi. Ming-

chaqirim naridan piyoda yoki mashina-da o'tgan odamning ham nafasi bo'g'ilib qolardi. O'shanda katta sa'y-harakatlar bilan ana shu holatga barham berilgan edi.

Endi manzara butunlay o'zgardi. Qa-chonlardir samarasiz hisoblangan 37 gektarlik maydonda barpo etilayotgan savdo, sanoat va servis majmuasida Samarqand sanoati va iqtisodiyotini yanada rivojlantiruvchi, umumiy qiymati 2 trln. 79 mlrd. so'mlik 7 ta loyiha amalga oshirilyapti. Umuman olganda, keyingi 5-6 yil ichida ilgari agrarchilikka ixtisoslashtirilgan tuman tadbirkorlarining sa'y-harakati, investorlarning ko'plab sarmoya kiritishi natijasida sanoatlash-gan hududga aylandi, shuning hisobiga aholining turmush tarzi yanada farovon-lashdi.

Davlatimiz rahbari hududda barpo etiladigan 20 ta kichik korxonaga ahamiyatiga alohida to'xtalib, loyihalarni tezlashtirish, ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, mahalliy lashtirish darajasini oshirish hamda tumanni ishsizlikdan xoli hududga aylantirish bo'yicha topshiriqlar berdi. Hozir ana shular ustida ish olib boryapmiz.

— Prezidentimiz 11 gektarlik may-donda qurilib, yaqinda ishga tushadigan avtomobillar ehtiyot qismlari bozorini ko'zdan kechirib, bizga tegishli ko'rsatma va topshiriqlarni berdi, — deydi kompleks menejeri Muhammadiso Ahmedov. — Savdo do'konlarida 3 mingta ish o'rni yaratiladi. 751 ta savdo nuqtasi kichik tadbirkorlar uchun, avtomobillarga xizmat ko'rsatib, daromad topayotgan ishbilarmonlar uchun qulay platforma vazifasini o'taydi. Umuman, ushbu lo-yihalarda o'n mingga yaqin aholi doimiy ish bilan ta'minlanadi.

Darhaqiqat, davlat tadbirkorga, tad-birkor esa davlatga ishoncha, muvaf-faqiyatlar zanjiri bir-biriga ulanaveradi. Samarqand shahri hududning Navro'z mahallasidagi rux va polimer bilan qoplangan metall listlar tayyorlashga ixtisoslashtirilgan "Aziyametallprof" MCHJ joylashgan hududi ham 4-5 yil oldin qarovsiz, hamma yashirincha chiqindi tashlab ketadigan joy edi. Korxonaga 33 mln. dollarlik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya kiritilib, 2018 — 2022 yillar-da xitoylik hamkorlar bilan birgalikda umumiy qiymati 110 mln. dollarlik loyi-halar amalga oshirildi.

Bu mahsulotlar ilgari O'zbekistonga chet davlatlardan olib kelinardi. Bugungi kunda ana shu import o'rni bosadigan, eksportbop sifatlil mahsulotlar Yevropa va Gruziya, O'zbarjyon davlatlariga jo'natiyapti. O'tgan yili korxonaga tomoni-dan 65 mln. AQSH dollariga yaqin mahsulot eksport qilindi.

Jamoa bugungi kunda yana bir yirik, po'lat eritish loyihasi ustida ishlayapti. Qiymati 196,3 mln. AQSH dollari bo'lgan ushbu loyihaning ishga tushishi natijasida korxonada yiliga 800 ming tonna metall ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi.

O'tmishi ulug'vor, buguni charog'on

Ko'hna va hamisha navqiron Samar-qand shahri betakror sharoqna ruhi va qi-yofasi, boy tarixi, bu yerda saqlanib qol-gan noyob, har qanday odamni hayratga soladigan obidalari bilan sayyoramiz-niing turli o'lkalarida afsonaviy shahar sifatida ma'lum mashhurdir.

"Olamda shunday nomlar borki, ular kishini xayolga cho'mdiradi, ularning sehri u nomlarni eshitganing yoki yozu-vini ko'rganing hamon darhol ta'sir eta boshlaydi. Xayolot sari yetaklaydigan nomlar orasida tasavvurimizni rom etadigan bir nom bor. U ham bo'lsa Sa-marqanddir", degan edi YUNESKOning 1987 — 1999 yillardagi Bosh direktori Federiko Mayor bu afsonaviy shaharga tashrifi chog'ida.

Darhaqiqat, buyuk tarixda hech nar-sa izziz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. O'z tarixiga, to'plangan tajribaga, dunyoda eng katta boylik sanalgan intellektual salohiyatga chuqur hurmat bilan yondashish esa har qanday davlatning moddiy va ma'naviy taraqqiyoti asosini tashkil etadi, desak, ayni haqiqatdir.

Shu ma'noda aytganda, bugun yangi O'zbekiston shiddatli rivojlanish yo'li-dan bormoqda. Uchinchi Renessans xalqni bir maqsad yo'lida birlashtirdi, kelajak poydevoriga tamal toshi qo'yd. Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamlil islohotlar jarayonida Samar-qand ham kundan-kunga o'zgaryapti, rivojlanyapti. Buni Prezidentimiz tashrifi-dan keyin yanada yangi marralarni ko'zlayotgan samarqandlik ziyolilar, ma'rifatchilar, tadbirkorlar, qo'yingki, oddiy odamlarning gap-so'zlaridan, kayfiyatidan ham bilib olsa bo'ladi. Ularning ertangi kunga, kelajakka bo'lgan ishon-chi ustuvor. Ishonch bor joyda esa bun-yodkorliklar, yangilani-shlar bardavomdir.

Bir paytlar sohibqiron Amir Temur tomonidan saltanat mehvari sifatida e'zozlangan bu zamin davlatimiz rahbarining sa'y-harakati bilan bugun yana oliy martabali rahbarlar mashvartlar o'tkazadigan, mintaqadagi xavfsizlik va iqtisodiy hamkorlik masalalarini muhokama etadigan dunyo chorrahasiga aylandi. Samarqand bu yerda oliy darajadagi mehmonlarni qabul qilish bilan birga, bugungi davrga hamnafas bo'lib, ertangi kunga, kelajakka ishonch bilan qadam tashlamog'da.

**Nurulloh OSTONOV,
Abdulaziz YO'LDOSHEV
("Xalq so'zi")**

TARIXIY HAMJIHATLIK VA QARDOSHLIK RISHTALARI BARDAVOM



— O'zbekiston va Qozog'iston — vaqt sinovidan o'tgan ishonchli hamkorlar. Ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning bugungi darajasini qanday tavsiflaysiz va hamkorlikni rivojlantirish uchun nima asos bo'lmoqda?

— Xalq hikmatlarida aytilganidek, yaxshi qo'shni Xudoning in'omidir. Qo'shningni uydagi tinchlik va xotirjamlik sizning oilangizga ham o'soyishtalik bag'ishlaydi. Keyingi yillarda aynan mana shunday ilqilik hamda samimiy munosabatlarni Qozog'iston va O'zbekiston o'rtasidagi aloqalarda ham saqqalantirish zarur. Buning mamlakatlarimiz rahbarlari — Qosim-Jomart Toqayev va Shavkat Mirziyoyevning mohirona va mulohazali yondashuvlari yordam bermoqda. Ular do'stlik, yaqin qo'shniçilik, o'zaro hurmatni birinchi o'ringa qo'yishgan.

2022 yil 22 dekabrda imzolangan ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnoma ikki tomonlama hamkorlikning qimmatli bosqichiga aylandi. Ushbu hujjat siyosiy, iqtisodiy, sarmoyaviy, ilmiy-texnikaviy, madaniy-gumanitar sohalarida qo'ng'i o'ziga berib ishlashga tayyorligimizni yaqqol ifodaladi.

Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev o'tgan yilning dekabr oyida O'zbekistonga davlat tashrii chog'ida ta'kidlaganidek, tarixiy umumiylk va xalqlarning qardoshlik rishtalariga tayanagan Qozog'iston va O'zbekiston mustahkam, hamohang munosabatlarni o'rnatgan. O'z navbatida, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, qozoqlar va o'zbeklar umumiy meros, madaniy va ma'naviy qadriyatlar bog'lagan qardoshlardir.

O'zaro manfaatli sa'y-harakatlar xalqlarimiz o'rtasidagi ko'priklarni mustahkamlab, o'z samarasini berayotganiga deyarli har kuni guvoh bo'lib turibmiz. Ammo davlatlarimiz ikki tomonlama hamkorlik bilan cheklanib qolmaydi. Biz butun Markaziy Osiyo mintaqasini rivojlantirish, o'zaro hamkorlik uqlarini kengaytirishga qaratilgan loyihalarni yaratish ustida faol ishlayapmiz. Bu nafaqat davlatlarimiz manfaatli, balki butun mintaqa taraqqiyoti va barqarorligi yo'lida sa'y-harakatlarni birlashtirishga tayyor ekanimizni tasdiqlaydi. Do'st-

lik, strategik sheriklik va o'zaro ham-jihatlik bizning boyligimiz va umumiy kelajagimizdir, men uning ertangi kuni yorug'ligiga qat'iy ishonaman.

— Qozog'iston O'zbekistonning savdo-iqtisodiy sohadagi muhim hamkorlaridan biridir. Mamlakatlarimiz o'rtasidagi tovar ayirboshlash darajasi yildan-yilga oshib bormoqda. Sizingcha, bunday muvaffaqiyatli hamkorlikning siri nimada?

— Qozog'iston va O'zbekiston o'rtasida savdo-iqtisodiy sohadagi muvaffaqiyatli hamkorlik siri har ikki davlat rahbarlarining uzoq muddatli strategik qarashlari, har bir davlat va uning aholisi ehtiyojlarini chuqur anglashida yotadi. Xalqlarimiz o'rtasidagi tarixiy aloqalar, ma'naviy yaqinlik hamda madaniy o'xshashliklar barcha darajadagi ishonch va hamjihatlikni mustahkamlaydi.

Bu, o'z navbatida, barqaror siyosiy muhit va har ikki davlatning shaffof iqtisodiy siyosati tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan, faol hamkorlik qilayotgan ishbilarmon doiralarni kuchaytirish va rivojlantirish uchun qulay zamin yaratadi.

Masalan, Qozog'iston va O'zbekiston o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 2016 — 2023-yillarda sezilarli o'sish darajasini ko'rsatib, uch barobaridan ortiq o'sdi va 5 mlrd. dollarga yetdi. Davlat rahbarlari ushbu muvaffaqiyatni inobatga olgan holda o'zaro tovar ayirboshlash hajmini 10 milliard dollarga yetkazish vazifasini qo'ymoqdalar.

Turkiston va Sirdaryo viloyatlariga chegara hududida qurilishi rejalashtirilgan "Markaziy Osiyo" xalqaro sanoat kooperatsiyasi markazi loyihasi ishlab chiqarish va kooperatsiya aloqalarini kengaytirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Kelajakda ushbu markaz transchegetaraviy savdoni rag'batlantirish, mintaqaning asosiy savdo va sanoat markaziga aylinishi yo'lida tashlangan xayrli qadamdir.

Mintaqalararo hamkorlik forumini tashkil etish uchun asos bo'lgan ikki mamlakat hududlari o'rtasidagi faol sheriklikni alohida ta'kidlash joiz. Joriy yilning kuzida O'zbekiston tomonidan Samarqand shahrida forumning 5-yig'ilishiga mezbonlik qilishga hozirlik ko'rilmoqda. Belgianayotgan chora-tadbirlar va qo'shma loyihalar transport-logistika infratuzilmasini takomillashtirish bilan mustahkamlangan iqtisodiy munosabatlarning yanada gullab-yashnashi uchun zamin yaratadi.

— **Tovar aylanasini ikki barm oshirishdek ulkan maqsad biznes uchun munosib qulay muhit yaratishni nazarda tutadi. Darvoqe, O'zbekistonda tadbirkorlik, innovatsion g'oyalarni va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda.**

da. Sizingcha, bu Qozog'iston tadbirkorlari va investorlarining mamlakatimizda mavjud biznesidagi avtomobil, havo va temir yo'l aloqalarini yanada kengaytirish rejalashtirilganmi?

— Qozog'iston va O'zbekiston o'rtasidagi transport aloqalarini rivojlantirish istiqbollari juda keng. Masalan, mamlakatlar o'rtasida havo qatnovi tobora ortib bormoqda — eng yirik "Air Astana" aviakompaniyasi 13 yildan buyon Toshkentga parovozlarni muvaffaqiyatli amalga oshirib keladi. Ikki davlat aviatsiya kompaniyalari o'rtasidagi so'nggi kelishuvlar reyslarni sonini haftasiga 19 marta, ya'ni Almatidan 14 taga va Ostonadan 5 tagacha ko'paytirish imkonini berdi. "Uzbekistan Airways" ham haftasiga 19 ta reysi amalga oshiradi.

"FlyArystan" sentabr va oktabr oylarida mos ravishda Samarqand va Nukusga parovozlarni, O'zbekistonning "My Freighter" yoki "Centrum Air" loutokostleri esa Almatidan Toshkentga to'g'ridan-to'g'ri reyslarni qayta yo'lga qo'yishni rejalashtiryapti. Kelgusida Farg'ona, Buxoro va Qarshi shaharlari qatnovi aloqalarini oshirish zarur.

Temir yo'l aloqasi sohasida mamlakatlar o'rtasida Almati — Toshkent va Almaty — Nukus yo'nalishlari bo'yicha poyezdlar qatnovi amalga oshiriladi. Avtobus yo'nalishlari Toshkent, Nukus, Chirchiq, O'stana, Almaty, Chimgent, Turkiston, Qizilo'rda va O'sh Qo'ng'ir kabi yirik shaharlarni bog'laydi.

Avtoyo'l aloqasi ham bir xil darajada muhim. Tashqi chegaraning birlashgan qismida sakkizta avtomobil nazorat punkti mavjud. Ayni paytda ularni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish bo'yicha ishlar olib borilmoqda, bu fuqarolarning harakatlanishi uchun sharoitlarni yaxshilash va chegaralar postlari o'tkazish qobiliyatini oshirish imkonini beradi.

Xalqaro transport koridorlarini rivojlantirish ham asosiy usullardan hisoblanadi. Bu nafaqat mamlakatlarimiz o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, balki iqtisodiy faoliyatni faollashtirish uchun sharoitni kengaytiradi.

Shunday qilib, mamlakatlarning transport hamkorligini chuqurlashtirish yo'lida qo'yilayotgan aniq qadamlari ikki tomonlama munosabatlarni yanada jipslashtirish uchun zamin yaratadi.

— **Mamlakatlarimiz o'rtasida turizm sohasini rivojlantirish, madaniy aloqalarni mustahkamlash bo'yicha qanday dasturlar amalga oshirilmoqda?**

— Qozog'iston va O'zbekiston o'rtasidagi turizm hamda madaniy aloqalarini faol rivojlantirish ikki tomonlama hamkorligimiz kun tartibida alohida o'rin tutadigan masala. So'nggi yillarda sayyohlar oqimining ortishi kuzatilmoqda. 2022 yil yakuniga ko'ra O'zbekis-

larni muhitni va o'sib borayotgan bozorini baholab, hamkorlikni faol kengaytirish yo'lidan borayotganini ta'kidlamochim.

Buni statistik ma'lumotlar ham tasdiqlaydi: 2019 yildan 2023 yilgacha O'zbekistonda Qozog'iston ishtirokida g'ij qorxonalar soni 2,5 baravar oshib, 1258 taga yetdi, Qozog'istonda esa 1,4 mingdan ortiq o'zbek qorxonalari faoliyat yuritmoqda.

O'zbekistonning biznes tartib-tomillarini soddalashtirish, turli imtiyozlar berish va iqtisodiy zonalar yaratish borasidagi sa'y-harakatlari turli mamlakatlardan investorlarni faol jalb qilmoqda. Qozog'iston ham bundan mustasno emas. Ayni paytda sanoat kooperatsiyasi doirasidagi qo'shma loyihalar soni 2,4 mlrd. dollarlik 71 ta loyihaga, 13,3 ming ish o'ri yaratishni nazarda tutadi. So'nggi yillarda 10 ta loyihaga amalga oshirilgan bo'lsa, yana 8 tasi jiro bosqichida, kelgusida esa 53 tasini yo'lga qo'yish kutilmoqda.

Amalda joriy qilinish bosqichida turgan yirik loyihalar, xususan, "Kazfosfat", "Bi-Group" va "RTS Holding" kompaniyalari O'zbekistonda qo'shma loyihalar qurib, 2,1 mlrd. dollardan ortiq sarmoya kiritishni rejalashtiryotganini alohida ta'kidlab o'tish joiz.

Shu bilan birga, O'stana va Toshkent hamkorlik yo'nalishlarini, jumladan, energetika, transport, aloqa va boshqa ko'plab sohalar hisobiga kengaytirishni maqsad qilgan.

Shunday qilib, O'zbekiston tomonidan biznes va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar Qozog'iston bilan iqtisodiy aloqalar va hamkorlikning mustahkamlanishiga olib kelmoqda, buni nafaqat statistik ma'lumotlar, balki aniq qo'shma loyihalarni ham tasdiqlaydi.

— **Biznes uchun lojistik tizimining salohiyatini oshirish, mamlakatlarning transport aloqalarini kengaytirish juda muhim. Qozog'iston va O'zbekiston o'rtasidagi transport kommunikatsiyalari muhim.**

tonga tashrif buyurgan qozog'istonlik sayyohlar soni qariyb 3 baravar oshib, 1,5 milliarddan ortiq kishini tashkil etdi.

Yaqinda Toshkentda Almaty shahri-ning sayyohlik imkoniyatlariga bag'ishlangan rod-shou tadbiri muvaffaqiyatli o'tkazildi. Tadbir doirasida Qozog'iston va O'zbekiston mutaxassislari "V2V" formatidagi uchrashuvlarni tashkil-
lashtirdi. Unda hamkorlikning dolzarb masalalari hamda qo'shma turizm mahsulotlarini ishlab chiqish va ilgari surish bo'yicha o'zaro hamkorlikning mumkin bo'lgan mexanizmlari muhokama qilindi.

Joriy yilning iyun oyida O'zbekistonda Qozog'iston madaniyati kunlari bo'lib o'tdi. Qozog'iston Madaniyat vazirligi qoshidagi Roza Baglanova nomidagi "Qazaqkonsert" davlat konsert tashkiloti Toshkent, Samarqand va Buxoro sahnalarida o'z chiqishlarini namoyish etdi. Poytaxtdagi "Turkiston" saroyida tomoshabinlar Qozog'istonda xizmat ko'rsatgan arboblarni, jumladan, "Gulder" va "Turan" ansambllari san'atkorlari ishtirokidagi gala-konsertni tomosha qilishdi. E'tiborsiz, "Turan" ansambli Alibek Kabdurahmonov dirijyorligidagi O'zbekiston simfonik orkestri bilan o'z iste'dodlarini birlashtirgan.

Alisher Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatri sahnasida Abay nomidagi Qozog'iston Milliy opera va balet teatri tomonidan taqdim etilgan "Abay" operasining namoyishi madaniy almashuvning avj nuqtasi bo'ldi. Umuman olganda, to'rt kunlik madaniy almashuv dasturidan qozog'iston filmlari namoyishi va tanqidi qozog'iston estradasida yulduzlari ishtirokidagi gala-konsertlar ham o'rin oldi.

Shu tariqa mamlakatlarimiz o'rtasidagi madaniy hamda sayyohlik borasidagi tashabbuslar kengayib, o'zaro hamjihatlik va hamkorlik ko'priklarini mustahkamlashga davom etmoqda.

— **Yaqinda mamlakatimiz mustaqilligining 32 yilligi keng nishonlandi. O'zbekiston xalqiga bayram tilaklaringiz...**

— Avvalo, O'zbekiston xalqini mamlakat mustaqilligining 32 yilligi bilan tabriklashga ijozat bergaysiz. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida yangi O'zbekiston jadal rivojlanmoqda. Qozog'iston eng yaqin qo'shni va qar-dosh xalq sifatida o'zbekistonliklarni bilan doimo yaqin aloqa va hamjihatlikni his etib kelgan. Shu yillar davomida biz sizning muvaffaqiyatlaringizning guvohi bo'lmoqdami. O'zbekiston xalqiga barcha sohada taraqqiyot tilayman. Har bir xonadonda farovonlik, tinchlik va totuv-lik hukm sursin, xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik yanada mustahkamlansin!

Nurlan USMONOV ("Xalq so'zi") suhbatlashdi.

ULUG' ALLOMAGA EHTIROM



Mazkur qarorga ko'ra, respublika-mizdagi Abu Rayhon Beruniy nomi bilan bog'liq obida va qadamjolarni, yodgorlik majmualarini mukammal ta'mirlash hamda ularning hududlarini obodonlashtirish, "Buyuk Beruniy merosi" xalqaro sayyohlik marshrutlarini yo'lga qo'yish, olimlar va mutaxassislarning ta'lim-mulohazalarini asosida ishlab chiqiladigan konsepsiya asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumanida shu yil yakuniga qadar Abu Rayhon Beruniy majmuasini qurish, uning hududida ilmiy-ma'rifiy, madaniy, dam olish va turizm ob'ektlari faoliyatini tashkil qilish hamda boshqa qator chora-tadbirlar belgilangan.

Alloma ilmiy-ijodiy merosiga mansub qo'lyozma va boshqa madaniy boyliklarni restavratsiya qilish, ularni o'rganish maqsadida xalqaro miqyosda keng ko'lami ilmiy izlanishlar olib borish, buyuk bobomiz hayoti va faoliyat haqida ilmiy, badiiy-publisistik asarlar yaratish, xorijiy olimlarning asarlarini o'zbek va qoraqalpoç tillarida nashr qilish ko'zda tutilgan. Xorijiy davlatlarda saqlanayotgan Abu Rayhon Beruniy hayoti va ilmiy-ijodiy merosi hamda u yashagan davrga oid qo'lyozmalar va boshqa madaniy boyliklarni aniqlash, ularning faksimile nusxalarini O'zbekistonga olib kelish, taqiq etish va davlat elektron katalogi hamda YUNESKOning raqamli kutubxonasiga joylashtirish choralarini ko'zga yitirmay.

Parijdagi ko'rgazma ham ana shu e'zgu yo'lidagi muhim tadbirlardan biridir. Unga tashrif buyuruvchilar vizual installyasiyalarni yordamida Abu Rayhon Beruniyning hayoti va ijodi, kashfiyot va izlanishlari haqida ma'lumot olishlari mumkin. Ekspozitsiyada almolaning Fransiya milliy kutubxonasi fondidan yig'ilgan qo'lyozmalarga alohida joy ajratilgan.

Dunyo jamoatchiligida katta qiziqish uyg'otgan ushbu loyiha nafaqat buyuk allomaga, balki o'zbek xalqi dahosiga chuqur ehtirom ramzi o'laroq yurt-doshlarimizda cheksiz faxr uyg'otishi, shubhasiz.

USMON NOSIR HAYKALI O'RNATILDI

Rossiya Federatsiyasi Kemerovo viloyatining Mariinsk shahrida o'zbek xalqining atqoli shoiri, erk va hurriyat kuchlisi Usmon Nosir haykali ochildi. Bu davlatimiz rahbarining "Otashin shoir, tarjimon va dramaturg Usmon Nosir tavalludining 110 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida amalga oshirildi.

Tadbirda har ikki mamlakatning davlat va jamoat arboblari, ziyolilar, shoir hamda yozuvchilar, yoshlar qatnashdi.

Ta'kidlaganidek, o'zbek adabiyotida o'chmas iz qoldirgan, sobiq tuzum davrida siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan otashin shoir, tarjimon va dramaturg Usmon Nosir xotirasini qalblarimizda yashamoqda. Uning yetuk badiiy asarlari ko'nglimizda ezgu insoniy fazilatlarni, Vatanga muhabbat va sadoqat, kelajakka yuksak ishonch tuyg'ularini tarbiyalaydi.

Mamlakatimiz delegatsiyasi, O'zbekiston elchixonasining Novosibirskdagi bosh konsulkonasi xodimlari hamda mahalliy aholi vakillari Mariinskdagi o'rmonzor qafidagi qatag'on qurbonlari qabristonida dafn etilgan Usmon Nosirning qabri ziyorat qildi. Qur'on tilovat qilindi, o'nganlar xotirasini yod etildi. Shoirning qabriga gullar o'g'yildi.

Umuman olganda, ushbu voqea O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi ko'p bosqichli madaniy-gumanitar aloqalarini rivojlantirishning yorqin namunasini va yana bir muhim omildir. Marosim ishtirokchilari buyuk shoir va dramaturg Usmon Nosirning yangi haykali poyiga gulchambarlar qo'ydi.

Ma'lumot o'rnida aytilish joizki, Usmon Nosir 1944-yil 9-mart kuni 31 yoshida Kemerovo viloyatining Mariinsk shahri kasalxonasida vafot etgan.

Kemerovo shahrida Usmon Nosirning muzejini ham tashkil etilgan bo'lib, viloyatda har yili shoirning muvobiq xotirasiga bag'ishlangan adabiy tadbirlar o'tkaziladi.

"Xalq so'zi".

REKLAMA

Kabarnoma "Uzauto Motors" AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risida. Hurmatli aksiyadorlar! "UzAuto Motors" AJ Kuzatuv kengashining 2023-yil 5-sentabrdagi 182-sonli bayonomasiga asosan, jamiyat aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2023-yil 2-oktabr kuni soat 15.00 da o'tkaziladi.

Ishga taklif. Batafsil rezюме bilan arizalar Pokistonning Toshkentdagi elchixonasiga tijorat bo'limida Savdo va investitsiyalarni rivojlantirish bo'yicha mutaxassis/marketing bo'yicha mutaxassis lavozimiga bir yillik shartnoma muddatiga taklif qilinadi.

Xalq so'zi Narodnoe slovo. MUASSISLAR: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT. 2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va umumiy kommunikatsiyalar agentligida 0001-rakam bilan ro'yxatga olingan. Nazar indeksi — 229. Buyurtma G 941.33.058 nuxsada bosildi. Hajmi — 2 ta boq. Ofset usulidabosildi. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 55-uy. Navbatiçhi muharrir N. Ostonov. Musahhif S. Islomov. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonalar manzili: Buyuk Turon ko'çasi, 41. O'za yakuni — 23.40 Topshirildi — 00.55 1 2 3 4 5 6